

Date: 29th October-2025

**PROFILAKTIKA INSPEKTORI TOMONIDAN AYOLLAR
JINOYATCHILIGINING UMUMIY PROFILAKTIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH FAOLIYATI**

Rasulov Asadbek Manzirjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi 312-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada profilaktika inspektorining mahalla yettiligi, xususan xotin-qizlar faoli bilan hamkorligi yo'nalishlari, hamkorlikning amalga oshirilishining huquqiy asoslari, bu boradagi kamchiliklar va ularni oldini olishdagi amalga oshiriladigan asosiy ishlar va bu borada kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va xalqaro xorij tajribalari yoritib berilgan. Shuningdek agar muammolar mahalla yettiligining o'zida hal qilinsa, boshqalarning oromi buzilmasligi ham ko'rib o'tilgan.

Annotation: In this scientific article, the directions of cooperation of the prevention inspector with the neighborhood seven, in particular with women's activists, the legal basis of the implementation of the cooperation, the shortcomings in this regard and the main works to be carried out to prevent them, and the works to be carried out in this regard in the future and international foreign experiences are highlighted. given It was also considered that if the problems are solved in the neighborhood seven, the peace of others will not be disturbed.

Mamlakatimizda mahallalar darajasida aholi muammolarini o'z vaqtida aniqlash va samarali yechimini topish, ijtimoiy himoya tizimining manzilliligi va shaffofligini ta'minlash orqali fuqarolar yashash sharoitlarini yanada yaxshilash bo'yicha tizimli ishlar bajarilmoqda.

Prezidentimiz aholi muammolarini mahallaning o'zida hal etish imkonini beruvchi barcha shart-sharoit va imkoniyatlarni, dunyoda muqobili yo'q yangi tizimni yaratib berdilar.

Tan olish kerakki, ilgari mahallada xalqning dardini tinglaydigan ko'p sohalarning "egasi" yo'q edi. Natijada, eng quyi tizimda hal etsa bo'ladigan masalalar yuzasidan ham odamlarimiz yuqori tashkilotlarga sarson-sargardon bo'lib borishiga to'g'ri kelar edi.

Ilgari aholining muammosini hal qila oladigan vakolatga ega biron-bir odam bo'lmagan mahallada hozirda hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy himoya uchun mas'ul va soliq xodimidan iborat kuchli jamoa shakllandi. Ularni faoliyatini muvofiqlashtiradigan, birdamligini ta'minlaydigan mahalla fuqarolar yig'ini raisi haqiqiy ma'noda mahallaning "hokimi"ga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimizning 2022-yil 26-dekabrdagi "Mahalla byudjeti" tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha



Date: 29th October-2025

chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-458-son qarori asosida endilikda mahallalar o'zining "byudjeti"ga ham ega bo'ldi.

Davlatimiz tomonidan mahalla institutiga mana shunday kuchli vakolat va imkoniyatlar berildiki, endi bu imkoniyatlardan o'z vaqtida, haqiqiy xalq manfaati yo'lida foydalanilishni ta'minlash uchun mahalla xodimlarini ham qo'llab-quvvatlash, ham "mahalla yettiligi" bilan deputatlar o'rtasida kuchli hamkorlikni ta'minlash talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi tomonidan joriy yil 4-aprel kuni qabul qilingan "Mahallalardagi muammolarni hal etishda Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari va senatorlarning "Mahalla yettiligi" bilan o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori vakillik organlari va "mahalla yettiligi" o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmini aniq belgilab berdi.

Mazkur qaror asosida sohada belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda "Mahalla yettiligi"ga ko'maklashish, mahallalarda qabul qilinayotgan qarorlarning haqqoniyligi va asoslilikini ta'minlashga, qolaversa, kelajakda (tegishli qonunlarga o'zgartirishlar kiritilgach) "ettilik" faoliyatiga deputatlar Kengashining haqqoniy ahosini berishga erishiladi.

Mazkur qaror bilan, mahallalardagi muammolarni hal etishda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari va "Mahalla yettiligi"ning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish sxemasi, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari va "Mahalla yettiligi"ning o'zaro hamkorlik yo'nalishlari aniq belgilab berildi.

Shuningdek, senatorlar mazkur qaror bilan hududlarga biriktirildi. Senatorlar ham har oyda o'ziga biriktirilgan hududga chiqqan holda Senat Qarorida belgilangan vazifalarning sifatli tashkil etilishida mahalliy Kengash deputatlariga amaliy yordam ko'rsatib boradilar. Hududlardan yuborilgan takliflarni o'rganish va muhokama qilish bo'yicha Oliy Majlis Senati Kengashining sayyor yig'ilishlariga taklif kiritib boradilar.

Har yarim yilda "Mahalla yettiligi" faoliyati bilan bog'liq respublika darajasidagi masalalar Senat yalpi majlisi muhokamasiga kiritilib, sohaga oid mutasaddilar axborotlari eshutilishi, zarur hollarda aniqlangan muammolar yechimi bo'yicha Hukumatga takliflar kiritib borilishi ko'zda tutilgan.

Jumladan, Toshkent viloyatiga Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbidin Burxanov, Xotin-qizlar va gender tengligi masalalari qo'mitasi raisi Malika Qodirxonovalar, viloyatdagi bir qancha tuman-shaharlar (Angren, Bekobod shaharlari, Bekobod, Bo'ka va Piskent tumanlari) xususan, Olmaliq shahriga esa "Olmaliq KMK" AJ boshqaruv raisi, senator Abdulla Xursanov biriktirildi.

Olmaliq shahar Kengashi deputatlari mazkur qarorning ijrosini ta'minlashda namunaviy ish tashkil etishga intilmoqda. Shu maqsadda dastlab qaror mazmun-mohiyatini deputatlarga va "Mahalla yettiligi"ga hamda barcha sohalarining shahar miqyosidagi rahbarlariga yetkazish, vazifalarni taqsimlab olish, shahar miqyosida sifatli ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yilning 13-aprel kuni Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi doimiy komissiyalarining ko'shma majlisida, 15-aprel kuni Kengash kotibiyati bilan hamkorlikda videomuloqot orqali seminar tarzida muloqot qilinib, barcha vazifalar



Date: 29th October-2025

kelishib olindi. 16-aprel kuni esa Toshkent viloyatida birinchi bo'lib Xalq deputatlari shahar Kengashining 90-sessiyasida mazkur masala muhokama qilinib, sessiya qarori qabul qilindi.

Qolaversa, deputatlar "mahalla yettiligi" faoliyati bilan yaqindan tanishib, ularga ko'mak berishi bilan birgalikda Kengash sessiyasida o'ziga birlashtirilgan "Mahalla yettiligi" faoliyatiga baho beradigan tizim yaratilmoqda.

Mahallalarni jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, notinch oilalar sonini kamaytirish, mahalla xavfsizligini ta'minlash masalalarida olib borilayotgan ishlarni munosib taqdirlash maqsadida bir necha yildan beri o'tkazib kelinayotgan tanlov ichki ishlar xodimlari bilan bir qatorda ular bilan hamkorlikda ishlaydigan turli soha vakillarining mehnati ham hisobga olinadi.

Mahalla hududid istiqomat qiluvchi xotin-qizlar bilan ishlashda, ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olishda profilaktika inspektori ing mahalla xotin-qizlar faoli bilan hamkorligi alohida o'rin tutadi. Bu borada qator islohotlar ham amalga oshirilmoqda. Jumladan "Eng namunali xotin-qizlar faoli"nominatsiyasi ham joriy qilingan bo'lib, bu nominatsiya har yili o'z vazifalarini a'lo darajada bajarib, xizmat vazifasini sidqidildan bajarayotgan soha vakillariga berilmoqda. Bu nominatsiyani qo'lga kiritganlardan biri shunday deydi:

-Mahallamizda besh yildan beri jinoyatchilik umuman kuzatilmagan, xotin-qizlar o'rtasidagi jinoyatchilik esa 10 yillardan beri qayd etilmagan, - deydi tanlov g'olibasi Sanobar Abdullayeva. – Naymantepada to'rt mingdan ziyod aholi istiqomat qilsa, ularning 2066 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. O'tgan yildan beri notinch oilalar bilan ishlashda boshqa bir tizim asosida ish olib boramiz. Misol uchun, ilgari notinch oila degan barcha oila a'zolari tushunilar va ulardan xabar olish u yoki bu ma'noda moddiy yordamgina nazarda tutilardi. Hozir oiladagi notinchlikka sabab bo'lgan shaxs bilan aniq va tizimli ish olib boriladi. Bu tizim faqat bir kishining emas, mahalla yettiligi, profilaktika inspektori bilan rejali hamkorligi asosida amalga oshiriladi. Shu tizim asosida ish olib borib, notich oilalar soni keskin kamayishiga erishdik.

Misol uchun o'tgan yili bir necha yildan beri spirtli ichimlikka ruju qo'ygan ayol bilan ishladik. Avvalo uning bunga ruju qo'yish sabablarini aniqladik, oiladagi muhitni obdon o'rgandik. Uning bandligini ta'minlash bilan bir qatorda ruhiy holatiga ta'sir o'tkazish, uni stressli holatdan olib chiqish uchun hoji onalarimizdan foydalandik. Hozirda bu oila mahallada xotirjam, turmush izga qo'yilgan oilalardan biriga aylandi.

Hukumatning joriy yil 25 iyundagi 354-son qarori bilan «Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularningvoyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning ma'muriy reglamenti» tasdiqlandi.

Unga ko'ra, Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar, boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslar tomonidan tazyiq va zo'ravonlik holati to'g'risida quyidagi shakllarda murojaat qilinadi:

«Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlari yoki ijtimoiy xodimga;



Date: 29th October-2025

ichki ishlar organlari navbatchilik qismining «102» telefon raqamlariga yoki bevosita profilaktika inspektorlariga;

«112» yagona dispetcherlik xizmati hamda 1146 qisqa raqamli «ishonch telefonii»ga.

Murojaat bo'yicha 24 soat ichida quyidagilar amalga oshiriladi:

xotin-qizlar faoli va mahalladagi profilaktika inspektori tomonidan tazyiq va zo'ravonlikni sodir etgan shaxs bilan suhbat o'tkaziladi;

ijtimoiy xodim xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlarining holatini dastlabki tarzda baholash choralari ko'radi;

profilaktika inspektori xotin-qizlarga himoya orderi rasmiylashtiriladi hamda zaruratga ko'ra birlamchi ko'mak xonalariga joylashtirish uchun tegishli dalolatnomani rasmiylashtirishga doir choralarni ko'radi;

ijtimoiy xodim va profilaktika inspektori tomonidan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari ularning roziligi asosida birlamchi ko'mak xonasiga joylashtiriladi.

Xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlar «Inson» markazlari, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazining hududiy markazlari tomonidan ko'rsatiladi.

Bu borada davlatimiz tomonidan qator islohotlar amalga oshirilishi hamon davom etmoqda. Tan olish kerakki izlanishlarimiz davomida bu borada hamon kamchiliklar borligini guvohi bo'ldik. Demak, hali bu borada yana qator ishlar amalga oshirishimiz kerak ekan...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi “Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar to'g'risida”gi Nizomi. – Qaror: VMQ, 2017 yil 2 mart, №118.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – Toshkent: Norma, 2023.
5. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.” – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. To'xtayeva D., Ortiqova S. “Voyaga yetmaganlar bilan ishlash psixologiyasi.” – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
7. Qodirov R. “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishdagi zamonaviy yondashuvlar.” // Huquq va jamiyat jurnali. – 2022. №4. – B. 45–50.
8. UNICEF Uzbekistan. “Yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish: Tahlil va tavsiyalar.” – Toshkent, 2024.
9. Kun.uz. “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi 40 foizga oshdi – Samarqand viloyati IIB.” 2023 yil 5 aprel. <https://kun.uz>
10. UzDaily. “O'zbekistonda maktablar xavfsizligini oshirish bo'yicha yangi kontsepsiya joriy qilinmoqda.” – 2025 yil 10 yanvar. <https://uzdaily.uz>

